



Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi

SAMARQAND
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil
yanvar-iyun



SAMARQAND VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra **4 069,3** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **38,0** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 496,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **2 572,4** ming kishi (**63,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4069,3 ming kishi

Tabiiy o'sish

+41,0 ming kishi

Doimiy aholining taqsimlanishi

Shahar




36,8 %

Qishloq



63,2 %

Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-iyun



49,9 *ming kishi*
Tug'ilganlar soni



8,9 *ming kishi*
O'lganlar soni



11,5 *ming kishi*
Nikohlar soni



2,6 *ming kishi*
Ajralishlar soni



4,7 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar soni



7,6 *ming kishi*

Ko'chib ketganlar soni


Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- iyul holatiga




50,3 %

2047,9 *ming kishi*



49,7 %

2021,4 *ming kishi*




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- iyul holatiga, ming kishi

	2021 -yil	2022-yil*	O'sish sur'ati %
Samarqand viloyati	3982,5	4069,3	102,2
Samarqand sh.	557,0	567,3	101,8
Kattaqo'rg'on sh.	91,1	92,6	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	163,0	166,8	102,3
Bulung'ur	191,0	195,2	102,2
Jomboy	177,9	182,3	102,5
Ishtixon	260,7	266,7	102,3
Kattaqo'rg'on	279,1	284,8	102,0
Qo'shrabot	134,6	137,5	102,1
Narpay	217,0	221,0	101,8
Payariq	256,7	263,2	102,5
Pastdarg'om	362,8	370,7	102,2
Paxtachi	146,8	148,8	101,4
Samarqand	258,6	264,1	102,1
Nurobod	154,2	157,4	102,1
Urgut	524,7	538,0	102,5
Toyloq	207,3	212,9	102,7

Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi


2022- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



Samarqand viloyatida 2022- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **242,7** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **5,2** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga 237,5 kishi).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Kattaqo'rg'on shahrida **6329,5** kishi, Samarqand shahrida **4732,6** kishi, Toyloq tumanida **768,9** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Nurobot tumani **32,4** kishi, Qo'shrabot tumani **63,7** kishi, Paxtachi tumani **108,2** kishini tashkil etgan.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti



Ma’lumot uchun: *Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.*




2022- yil yanvar-iyun oylarida 49875 nafar bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **24,8** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,7** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **24,1** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR

2022- yilning yanvar-iyun oylarida **8914** nafar kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil.


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-iyun, kishi





2022- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining **58,2 %** – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **6,7 %** i – o'simalardan, **8,7 %** i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, **4,4 %** i – baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,2 %** i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, **0,9 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **16,9 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIHOHLAR




2022- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 11 513 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,7 promilleni tashkil etdi.





Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Paxtachi (**6,7**) Urgut (**6,6**), Payariq (**6,2**) va Oqdaryo (**6,1**) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Samarqand (**4,4**) Nurobod (**4,6**), Narpay (**4,8**), va Qo'shrabot (**5,1**) tumanlarida kuzatildi.





NIKOHDAN AJRALISHLAR

2022- yil yanvar-iyun oylarida **2569** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda


Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2022 –yil, yanvar-iyun)



Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Kattaqo‘rg‘on shahar (**2,0**), Samarqand shahar (**1,8**), Samarqand (**1,7**), Paxtachi (**1,7**) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Urgut (**0,7**), Qo‘shrabot (**0,8**), Jomboy (**1,0**) va Nurobod (**1,0**) tumanlarida kuzatildi.




AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

Migratsiya. 2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 656 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 7 579 kishini tashkil etdi. Migratsiya sal'dosi minus 2 923 kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 4 123 kishi bo'lgan.

	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	5 735	4 656
Ko'chib ketganlar	9 858	7 579
Migratsiya sa'ldosi	-4 123	-2 923



Samarqand viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2022- yil yanvar-iyun, kishi

	<i>Ko'chib kelganlar</i>	<i>Ko'chib ketganlar</i>	<i>Migratsiya sa'ldosi</i>
Samarqand viloyati	4656	7579	-2923
Samarqand sh.	2027	1216	811
Kattaqo'rg'on sh.	180	440	-260
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	226	280	-54
Bulung'ur	170	431	-261
Jomboy	165	241	-76
Ishtixon	205	550	-345
Kattaqo'rg'on	299	519	-220
Qo'shrabot	166	463	-297
Narpay	100	375	-275
Payariq	155	642	-487
Pastdarg'om	333	443	-110
Paxtachi	17	573	-556
Samarqand	332	366	-34
Nurobod	88	294	-206
Urgut	13	601	-588
Toyloq	180	145	35

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Urgut (minus 588 kishi), Paxtachi (minus 556 kishi), Payariq (minus 487 kishi), Ishtixon (minus 345 kishi) Qo'shrabot (minus 297 kishi), Narpay (minus 275 kishi) Kattaqo'rg'on shahar (minus 260 kishi), hamda tumanlarida kuzatildi.

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikka, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 66 235-72-35